

LINGVISTIK CHATBOTLAR VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING INSON NUTQINI AKS ETTIRISHIDAGI O'RNI

Muminjonova Marvaridxon Oybek qizi
Ilmiy rahbar: Jumayeva Umida Abdurahim qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada lingvistik chatbotlarning inson nutqiga xos bo'lgan emotsional jihatlarni qayta ishlash va aks ettirish imkoniyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sun'iy intellekt tizimlarida emotsional intellektning o'rni, matnli muloqotda hissiyotlarni aniqlash algoritmlari va pragmatik xususiyatlari yoritilgan hamda yakunda mavzuga doir xulosalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: Lingvistik chatbotlar, emotsional intellekt, sun'iy intellekt, tabiiy tilni qayta ishlash, sentiment tahlil, kognitiv lingvistika.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the capabilities of linguistic chatbots to process and reflect the emotional aspects inherent in human speech. The study highlights the role of emotional intelligence in artificial intelligence systems, as well as algorithms for detecting emotions in text-based communication and their pragmatic features. The article concludes with comprehensive findings related to the research topic.

Keywords: Linguistic chatbots, emotional intelligence, artificial intelligence, natural language processing, sentiment analysis, cognitive linguistics.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ возможностей лингвистических чат-ботов по обработке и отражению эмоциональных аспектов, присущих человеческой речи. В ходе исследования освещаются роль эмоционального интеллекта в системах искусственного интеллекта, алгоритмы определения эмоций в текстовой коммуникации и их прагматические особенности, а в завершении приводятся выводы по данной теме.

Ключевые слова: Лингвистические чат-боты, эмоциональный интеллект, искусственный интеллект, обработка естественного языка, sentiment-анализ, когнитивная лингвистика.

Kirish. Bugungi kunda sun'iy intellekt tizimlari inson muloqotining ajralmas qismiga aylandi. Biroq, inson nutqi shunchaki grammatik qurilgan jumlar yig'indisi emas, balki murakkab emotsional pog'onalardan iboratdir. Lingvistik chatbotlar – bu inson tilini tushunish va unga javob qaytarish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minotlar bo'lib, ularning samaradorligi endilikda nafaqat axborot berish tezligi, balki foydalanuvchining his-tuyg'ularini qay darajada aks ettira olishi bilan o'lchanmoqda.

Asosiy qism. 1. Emotsional intellektning lisoniy tabiati. Emotsional intellekt tushunchasi tilshunoslik va psixologiya tutashgan joyda yuzaga kelgan. Ma'lumki, inson muloqotining 70-80 foizi imo-ishora, ohang, yuz va harakat ifodasi shaklda bo'ladi. Chatbotlar esa asosan matnli muloqot bilan cheklangan. Shu sababli, chatbotlar uchun matn ostida yashirilgan ma'no va emotsional bo'yoqdor so'zlarni ajratib olish muhim vazifaga aylandi. Daniel Goleman o'zining "Emotional Intelligence" asarida ta'kidlaganidek: "Emotsional intellekt – bu o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqalarning emotsiyalarini to'g'ri talqin qila olish qobiliyatidir. Sun'iy intellekt tizimlari mukammal muloqotga erishishi uchun aynan mana shu insoniy qobiliyatning raqamli modelini yaratishi zarur".

2. Sentiment tahlil: chatbotlar his-tuyg'ularni qanday his qiladi? Zamonaviy lingvistik chatbotlar kayfiyat tahlili texnologiyasidan foydalanadi. Bu texnologiya matndagi so'zlarning semantik yuklamasini ijobiy, salbiy yoki neytral ekanini aniqlaydi. Taniqli lingvist Joan Kazakov ta'kidlab o'tganidek: "Lingvistik chatbotlar nutqni tahlil qilishda faqat leksikaga emas, balki sintaktik qurilishga ham e'tibor berishi kerak. Chunki kinoya yoki sarkazm so'zning lug'aviy ma'nosini butunlay boshqa ma'noga o'zgartirib yuboradi. Masalan: "Barakalla!", "Juda yaxshi qildingiz!", "Bopladingiz!", "Gap bo'lishi mumkin emas!" jumalari vaziyatga qarab ham maqtov, ham qattiq tanqid bo'lishi mumkin. Buni esa AI mukammal va to'g'ri fahmlay olmaydi.

3. Inson nutqini aks ettirishda empatik javob strategiyasi. Chatbotlarning inson nutqini aks ettirishidagi eng katta yutug'i — bu hamdardlik sifati bilan javob bera olishidir. Masalan, foydalanuvchi chatbotga o'z muammosini, kechinmalarini yozganda, chatbot shunchaki: "Ma'lumot qabul qilindi, so'rovingiz bajarildi", - deyish bilan cheklanmay, "Sizni tushunib turibman, bu vaziyatda har kim ham tushkunlikka tushishi mumkin, qayg'urma, hammasi o'tib ketadi yoki senga qanday yordam bera olaman!", - deb javob berishi — bu emotsional intellektning amaliy in'ikosidir. Sherri Terkl o'z tadqiqotlarida raqamli muloqotning hissiy tomonini o'rganib, shunday deydi: "Biz robotlarning bizga g'amxo'rlik qilishini istamaymiz, lekin biz ularning bizga g'amxo'rlik qilayotgandek tuyulishini xohlaymiz. Inson nutqining aks etishi — bu faqat so'zlar almashinuvi emas, balki tan olinish jarayonidir".

4. Muammolar va cheklovlar. Lingvistik chatbotlar qanchalik mukammallashtirilsin, ular hanuzgacha inson nutqidagi madaniy kodlar, ohanglar ma'nosi, emotsiyalardagi farqlar va kontekstual nozikliklarni to'liq anglashda qiynalmoqda. Masalan:

1. Kontekstning yo'qolishi: Uzoq davom etgan suhbatda AI boshlang'ich emotsional ohangni unutib qo'yishi mumkin.
2. Madaniy farqlar: Bir tildagi erkalash, kichraytirish ma'nosidagi so'z boshqa tilda haqorat bo'lib tuyulishi mumkin, AI esa buni matematik ehtimollik asosida hisoblaydi, his qilmaydi.

Xulosa. Lingvistik chatbotlarda emotsional intellektning rivojlanishi inson va texnologiya o'rtasidagi masofani qisqartiradi. Kelajakdagi chatbotlar nafaqat aqlli assistent, balki suhbatdoshning ruhiy holatini tushunadigan va unga mos nutqiy uslubni tanlaydigan lisoniy hamrohga aylanishi mumkin. Biroq, inson nutqining takrorlanmasligi va hissiyotlarning cheksizligi sababli, AI baribir insoniy samimiyatning to'liq o'rnini bosa olmaydi, balki uning raqamli aksiga aylanadi xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurova D.X. (2012). Matn tilshunosligi. Toshkent: Mumtoz so'z.
2. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.
3. Kazakov, Y. (2020). Natural Language Processing and Sentiment Analysis. Moscow: Science Press.
4. Picard, R. W. (1997). Affective Computing. MIT Press.
5. Safarov Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
6. Turkle, S. (2011). *Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other*. Basic Books.